

ANTIK DAVR FALSAFIY ANTROPOLOGIYASIDA INSON BORLIG'INING O'RGANILISHI

Yuldashev Tazabay Niyetbay o'g'li

Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch-doktoranti

Annotatsiya: *Falsafa inson borlig'i muammosini turli xil metodologik asoslarga tayangan holda o'rganadi. O'z navbatida metodologik yondashuvlar va ulardan kelib chiquvchi yechimlar ontologik, gnoseologik, ijtimoiy-falsafiy va boshqa rakurslardan inson borlig'ining umumiy kartinasini beradi. Ushbu ilmiy ishda inson borlig'i fenomeni falsafiy va metodologik jihatlardan umumiy tizimli tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *metodologik, gnoseologik, ontologik,*

Falsafa inson borlig'i muammosini turli xil metodologik asoslarga tayangan holda o'rganadi. O'z navbatida metodologik yondashuvlar va ulardan kelib chiquvchi yechimlar ontologik, gnoseologik, ijtimoiy-falsafiy va boshqa rakurslardan inson borlig'ining umumiy kartinasini beradi. Ushbu ilmiy ishda inson borlig'i fenomeni falsafiy va metodologik jihatlardan umumiy tizimli tahlil qilinadi.

Antik davr yunon falsafiy antropologiyasida dastlab inson o'zicha yashamaydi, aksincha, u avval kosmos ya'ni absolyut tartib deb qabul qilingan ijtimoiy munosabatlar tizimida hayot kechiradi deb tushuntirilgan. "Kosmos" tushunchasi bu yerda insoniylik ma'noga ega, inson esa koinotning bir bo'lagi, boshqacha aytganda makrokosmosni aks ettiruvchi mikrokosmos sifatida izohlangan. Inson haqida bunday qarashlarga Milet maktabi vakillari ega edi. Bu davr faylasuflari koinotni va unda mavjud tartibni tushunish orqali insonning o'zini ham anglash mumkinligini e'tirof etishgan.

To'g'ridan to'g'ri antropologik masalani o'z falsafasining markaziga qo'ygan faylasuflar orfiklar, sofistlar va Suqrot davridan boshlangan va antik davr klassik falsafasining e'tiborida bo'lgan.

Orfizim – qadimgi Yunonistondagi ta'limot bo'lib, kelib chiqishi mifologik shoir Orfey bilan bog'lanadi. Orfiklar ta'limoti mistik elementlarga boy bo'lsa ham inson borlig'ini o'zicha tushuntirishni ilk boshlovchilardan hisoblanadi. Ular ilk bora insonni ruh va tanadan iboratligini va bu qanday paydo bo'lganligini izohlaydi. Orfizimga ko'ra, insoniyatning paydo bo'lishi teogonik xususiyatga ega bo'lib, inson tanasi yerlik Titanning bo'lagi hisoblanib, o'zida ilohiy osmonlik Dionis bilan bog'langan ruhni ushlab turadi. Ular tana o'lgach ruh tanani tark etib, yana boshqa tanaga o'tishiga ya'ni ruhning abadiylikiga ishonishgan.

Orfizim ruh va tananing dialektik birligi haqidagi qarashlari, shuningdek, insonlarni reinkarnatsion siklni tugatish, ruhni tanadan ozod qilish uchun qanday hayot kechirish haqidagi fikrlari bilan keyingi davr faylasuflari qarashlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Buni biz ayniqsa Aflotunning qarashlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Yunon va nasroniy apokaliptikasi haqidagi fundamental tadqiqotida A. Ditrux quyidagicha yozadi: "Aflotun ta'kidlagan o'limdan keyingi hayot haqidagi asl orfik ta'limotni takrorlaydi"¹. Boshqa bir olim O. Dyez orfik tafakkurning Aflotun falsafasiga ta'sirini tan oladi ammo

¹ Dieterich A. Nekyia: Beiträge zur Erklärung der neuentdeckten Petrusapokalypse. Leipzig: Teubner, 1893. 238-bet.



Aflotun orfizmdan farqli ravishda bu qarashlarni diniy shakldan falsafiy shaklga o'tkazganini alohida ta'kidlaydi².

Sofistlar (Protagor, Gorgiy) tushuntirishlaricha, inson o'zini o'rab turgan olamdagi barcha hodisalarga, voqealarga tanqidiy nigoh bilan boqmog'i, olam to'g'risidagi fikr-mulohazalarini takror-takror tekshirib turmog'i darkor³. Boshqacha aytganda, tanqidsiz, yuzaki qabul qilingan tasdiq, har qanday e'tiqod, har qanday ishonch mustahkamligini vaqti-vaqti bilan tekshirib turmoq zarur. Sofistlar inson ongida asossiz, yuzaki shakllangan tasavvurlarga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Faqat chinakamiga isbotlangan, har tomonlama asoslangan dalillar zaminida shakllangan onggina yashashga haqli bo'lishini qayta-qayta ta'kidlaydilar.

Sofistlarning inson to'g'risidagi fikr-mulohazalarining mohiyatini ilg'ab olish uchun quyidagi uch holatni: birinchidan, insonning insoniyligini ifodalovchi eng muhim xususiyatlar - yaxshilik, xayrixohlik, adolatpeshalik va hokazolar relyativizm va subyektivizm mavqeidan turib baholanganligini; ikkinchidan, inson borliqning har qanday shakliga ta'sir o'tkarishga qodir, deb qaralganligini; uchinchidan, inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlarining mavjudligining e'tirof etilganligini hamisha inobatga olish zarur⁴.

O'sha davrda Yunonistonning ko'pgina polislarida demokratik tuzum qaror topgan edi. Insonning davlat yumushlarida ishtiroki orta borishi, undan chiroyli nutq irod qilish mahoratini uzluksiz takomillashtirishni taqozo etar edi. Ana shunday sharoitda naturfalsafiy masalalar o'rnini asta-sekin inson va uning ma'naviyati, xususan, ishontira bilish muammolari egallay boshladi. Ishontirish mahoratini shakllantirish, tabiiyki, ko'proq bilimga ega bo'lishni, insondan o'zini chuqurroq bilishni talab etardi. Inson hayotini boshqarib turgan ongning o'zini bilish kun tartibiga qo'yildi. Boshqacha aytganimizda, inson o'zini-o'zi bilishi dolzarbligi bilan birinchi o'ringa chiqib oldi.

Sofistlarning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri Protagor (miloddan avvalgi 481-411-y.y.) falsafiy tafakkur tarixida birinchilardan bo'lib, "inson olamdagi hamma narsaning asosiy mezonidir"⁵, degan fikrni bayon qildi. Inson uchun yoqimli bo'lgan narsalarning hammasi yaxshi, nimaki unga azob-uqubat olib kelsa yomondir. Yaxshilik va yomonlikni baholovchi mezon alohida olingan individdir. Xuddi shuning uchun ham sofistlar bilish to'g'risidagi fikr-mulohazalarining asosiga yakka kishini (individni) qo'yishadi. Yakka kishining (individning) o'ziga xos fazilatlarini, xislatlarini o'rganishni - bilishning subyekti, deb e'lon qilishadi.

Antik davr klassik falsafasining ilk yirik namoyandasi Suqrot (miloddan avvalgi 469-399-y.y.) falsafasida inson muammosini o'rganish asosiy o'rinda turgan. U «O'z-o'zingni angla va bil», degan hikmatni tez-tez takrorlagan.

Suqrotning tushuntirishicha, insonning ongi turli holatlarda, darajalarda sodir bo'lib, o'sha murakkab ongning sohibi individdir. Individning ongi esa ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ongning mazmunini oliy instansiya (aql) belgilab beradi. Aql turli bilimlarni vujudga keltiruvchi manbadir. Inson bilimni o'zining xatti-harakati bilan qo'lga kiritadi. Bilimlarni inson tashqaridan tayyor holda qabul qilib olmaydi. O'sha bilimlarning haqiqiy yoki soxta ekanligini turli munozaralar, bahslar aniqlaydi. Bahs, munozaralar jarayonida inson o'z suhbatdoshining fikr-mulohazalarini tahlil qiladi, zarurlarini o'zida saqlab qoladi, ortiqchasini chiqarib tashlaydi. Shunday yo'l yordamida haqiqatga, hamma tan oladigan haqiqiy bilimga erishiladi.

² Diès A. Autour de Platon: Essais de critique et d'histoire. Vol. 2. Paris, 1927. 616-bet.

³ Лосев А.Ф. История античной эстетики. Софисты. Сократ. Платон. М., 1969.

⁴ A.Choriyev. Inson falsafasi. T-2007. 46-bet.

⁵ Qarang: Платон. Сочинения. В трех томах. Том 2. М., 1970, 238-bet.



Suqrotning inson falsafasida asosiy o‘rinni axloqiy ratsionalizm egallaydi. Uning fikriga ko‘ra, axloqsizlik va bilimsizlik barobar tushunchalardir. Agar inson nima yaxshi, nima yomonligini bilsa, yomonlikka qo‘l urmaydi. Insondagi yomonliklar bilimsizlikning natijasidir.

Suqrotning inson to‘g‘risidagi qarashlari uning shogirdi Aflotun (miloddan avvalgi 427-347-y.y.) tomonidan yanada rivojlantirildi. Aflotun insonning ilohiy qudrat tomonidan yaratilganini tasdiqlaydi. Bu o‘rinda u “demiurg” tushunchasi orqali insonlarni yaratgan birinchi sababni ko‘rsatadi. Xudolar xuddi o‘sha demiurgdan abadiy o‘lmas jonni oldilar va uni tanaga qamab qo‘ydilar.

Aflotunga ko‘ra, insonning mohiyati asosan ikki bo‘lakning uyushmasidan iborat: o‘lmas jon va o‘lib turadigan tana. Jon xuddi g‘oya kabi bir butun bo‘lib, u bo‘linmasdir, tana esa allaqanday materialdan yasalganligi uchun bo‘linib turadi va bir necha qismlardan iboratdir. Jonning mohiyati uning bo‘linmasligida emas, balki doimo harakatda ekanligidadir. Uning yordamida inson abadiy g‘oyalar olamining sir-asrorini bilib oladi.

Aflotun jonning ko‘chib yurishi haqidagi nazariya tarafdori edi. Faylasufning tushuntirishicha, jon tana o‘lganidan so‘ng uni tark etadi. So‘ngra vaziyatga qarab, ezgulik uni yerga boshlaydi va yana boshqa bir tirik mavjudot (odam yoki hayvon) tanasiga joylashib oladi. Eng takomillashgan, har tomonlama sayqal topgan jon, yer yuzida qoladi. Aflotunning fikr-mulohazalariga asosan, tana jonning soyasi bo‘lib, tanani tozalab turish uchun jon vaqti-vaqti bilan uni tark etib turishi lozim. Chunki jon hamisha oliy ezgulik tomon intiladi. Har bir kishining joni, Aflotun tomonidan inson bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik kontekstida tahlil qilinadi. Uning tushuntirishicha, inson degan mavjudot hech qachon o‘z ehtiyojini yakka o‘zi qondira olmaydi. Shuning uchun odamlar hamkorlikda va jamoa bo‘lib faoliyat ko‘rsatishga hamisha zaruriyat sezadi⁶.

Aflotun jon va tananing antropologik dualizmi pozitsiyasida turib jonni insonni inson qiluvchi asos, tana esa unga qarshi qaratilgan materiyani ifodalashni ilgari surgan. Aflotun Suqrotning ta‘limotini davom ettirib, bilimlarga intiluvchi jonni yuqori qo‘yadi va bu insonni hayvondan farqlovchi asosiy mezon hisoblanadi. Insonning joni hamisha transsendent g‘oyalar dunyosiga talpinadi, tana esa insonni hayvonlar dunyosi bilan bog‘lab turadi⁷.

Inson va uning mohiyati haqidagi o‘zgacha fikr-mulohazalarni Aflotunning shogirdi Arastu (miloddan avvalgi 384-322-y.y.) falsafasida yaqqol ko‘rish mumkin. Inson jismi va ijtimoiy qiyofasi orasidagi aloqadorlikni tushuntirib berishda Arastu o‘z o‘tmishdoshlaridan ancha ilgari ketdi.

Arastuning tushuntirishicha, olamdagi jamiki tirik mavjudotlar hayotining asosini jon tashkil qiladi. Jon bir necha «darajalar», «holatlar»da namoyon bo‘ladi. Arastu butun borliqni yashash tarziga ko‘ra uch yirik turkumga bo‘linadi: jonsiz tabiat borlig‘i, jonli tabiat borlig‘i va inson borlig‘i.

Jonsiz tabiat borlig‘i o‘sish xususiyatiga ega bo‘lmagan barcha ma‘danlarni o‘z ichiga oladi. Eng past turkumdagi jon o‘simliklarda, murakkabroq darajadagi jon hayvonlarda, eng murakkab turkumdagi jon odamlarda bo‘ladi. Bunday fikr-mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, Arastu falsafiy fikrlar tarixida birinchilardan bo‘lib, tiriklik ramzi bo‘lgan, jonning topologiyasini ishlab chiqdi. Uning fikriga muvofiq, o‘simlik joni barcha tirik mavjudotni oziqlantiradi, o‘stiradi, ko‘paytiradi, hamma narsaga ilhomlantiruvchi kuch-quvvat ato etadi. Hayvon joni yuqoridagi funksiyalarni bajarish bilan birga, sezish qobiliyatiga ham ega bo‘ladi. Shuningdek, hayvon jonida yoqimli narsaga intilish, yoqimsiz narsadan qochish tuyg‘usi mavjud bo‘ladi. Odam joni, ya‘ni aqlli jonda o‘simlik, hayvon joni bajargan funksiyalardan tashqari, eng oliy qobiliyat - fikr yuritish, tafakkur mavjud bo‘ladi.

⁶ Платон. Сочинения. В трёх томах. Том 3, часть 1. М., 1971, 145-бет

⁷ А.К.Бердимуратова. “Философия” oqiw qollanba. T-2022. 331-бет.



Arastuning ta'kidlashicha, tana oliy darajali aql uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Aql esa, tanaga bog'liq bo'lmaydi. Oliy darajadagi aql o'zining faoliyat ko'rsatishi, yaratuvchanligi bilan faqat qabul qilish xususiyatiga ega bo'lgan passiv aqldan tubdan farq qiladi.

Arastu inson deb ataluvchi tirik mavjudotni, bir tomondan, «butun va bo'linmas», deb talqin etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, unga o'ziga o'xshaganlar bilan yashashga mahkum etilgan «Siyosiy maxluq» sifatida qaraydi. U o'zining «Siyosat» nomli asarida insonga quyidagicha ta'rif beradi: «...inson o'z tabiatiga ko'ra siyosiy mavjudotdir»⁸.

Arastu odamning inson darajasiga ko'tarilishida jamiyat hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd etadi. Odamlar faqat jamiyatda inson bo'lib shakllanadilar, axloqiy mavjudot bo'lib tarkib topadilar. Lekin bunday tarbiya faqat adolatli davlat sharoitida amalga oshishi mumkin. Haqiqiy adolat prinsiplari va normalari asosida yaratilgan qonunlar ustuvorligiga erishish, ularga amal qilinishini ta'minlash, fuqarolarda chinakam insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi⁹.

Arastuning fikriga muvofiq, odamlarni faqat moddiy farovonlik emas, balki ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya qilishi ezgulik tomon boshlaydi. U ezgulik deganda aql-zakovat bilan ish ko'rishni, mehribonlikni, mardlik, ochiqko'ngillik, to'g'rilik, xayrixohlikni tushunadi. Faylasufning e'tirof etishicha, kimki o'zining xulq-atvori uchun javob bermaydigan holatda bo'lsa, bunday kishi o'ziga-o'zi xo'jayinlik qila olmaydi. Bunday kimsalar insof, adolat va boshqa ezgulikka chorlovchi fazilatlardan benasib bo'ladilar. Bunday qul o'z tabiatiga ko'ra boshqa kishining irodasini ijro etadi, xolos.

Arastu insonni olamdagi tirik mavjudotlarning toji deb tushuntiradi. Chunki, inson degan tirik mavjudotda rivojlangan intellekt mavjud, u nutq so'zlash imkoniyatiga, yaxshilik bilan yomonlikning farqiga borish qobiliyatiga ega. «Tabiat insonning qo'liga qarab intellektual va axloqiy kuch-quvvat qurolini berdi», deb yozgan edi u. Arastu bunday fikr-mulohazalarni bayon qilish yordamida inson bilan hayvon o'rtasidagi farqni ko'rsatib bermoqchi edi. Arastu odamlar o'z tabiatlariga muvofiq aslida bir-birlari bilan teng bo'lmasliklari darkor, deb tushuntiradi. O'z ustoz Aflotun qarashlarini quvvatlab, odamlar o'z tabiatlariga ko'ra bir-birlariga teng emas ekanlar, xuddi shu holat ularning ijtimoiy hayotda ham notengligiga olib keladi, shuning uchun ham birovlar hukmdorlik qilish uchun tug'ilsa, boshqa birovlar bo'ysunib yashash, tobe bo'lish uchun dunyoga keladilar, deydi.

Ko'rinib turibdiki, Arastu jamiyatda ijtimoiy tengsizlik vujudga kelishining haqiqiy sababini tushuntirib bera olmaydi. Arastu insonni o'ziga xos estetik voqea deb qarar, lekin o'sha estetik voqeani naturfalsafiy prinsiplarga asoslanib tushuntirar edi. U inson go'zalligi haqida so'z ketse, birinchi galda, uning tabiiy chiroyi, jismonan sog'lomligi, qaddi-qomati, kuch-quvvati, xatti-harakatini tushunar edi. Shunday bo'lishi bilan birga, Arastu insondagi go'zallik, uning zeb-u ziynati, faqat jismoniy kamoloti bilan emas, balki uning amaliy faoliyati, aktivligi, ijodiyligi bilan ham aloqador ekanligini takrorlashdan charchamas edi. Shuning uchun ham u, inson ham jismonan, ham axloqan kamolotga erishishi darkor, deb bilardi. «Inson aqliy qatlamsiz, o'zining hissiy va jinsiy instinktlariga sodiq qoluvchi eng nopok va yovvoyi mavjudotga aylanadi»¹⁰, deb yozgan edi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ijtimoiylik va aqllilik Arastu antropologiyasida insonni boshqa jonzotlardan ajratuvchi asosiy xususiyatlar hisoblanadi. Shuningdek, Arastu insonning intellektual va siyosiy faoliyat – insonning o'zini-o'zi realizatsiyalash va gumanizatsiya jarayonining yagona yo'li ekanligi haqida g'oyani ilgari surgan.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, Arastu qadimgi zamon sivilizatsiyasi sharoitidayoq insonning har tomonlama kamoloti haqida fikr yuritganiga guvoh bo'lamiz. Inson barkamolligini ifodalovchi yuksak

⁸ Аристотель . Политика. М ., 1911, 71-bet.

⁹ Аристотель . Сочинения. В четырех томах. Том 4. М ., 1983, 462-bet

¹⁰ Аристотель . Политика. М ., 1911, 12-bet.



axloqiy poklik, tashqi va ichki go‘zallik, ijtimoiy-siyosiy yetuklik kabi fazilatlarini Arastu «kalokagatiya» deb atagan. Inson o‘zining barcha ichki imkoniyatlarini rivojlantirib, olamdagi eng xayrixoh, odil mavjudotga aylangandagina «kalagakatiya»ga ega bo‘ladi. Insonda bunday holat barcha xayrixohliklar (ezguliklar) sintez bo‘lib jamlangandagina vujudga keladi. Xuddi shuning uchun ham Arastu har bir jamiyat a‘zosida bunday qobiliyat va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini izlab topish o‘ta muhim ahamiyatga egadir, deb ta’kidlaydi. Jamiyat va insonning munosabati masalasida Arastu metodologik kollektivizm tarafdori, ya’ni, ijtimoiy yaxlitlikning individdan ustunligini tan oladi.

Umuman olganda, qadimgi yunon falsafiy antropologiyasi o‘zida mifologik va diniy elementlarni ham aks ettirib, ular bilan dialogda rivojlangan. Ammo, inson falsafasi bo‘yicha turli maktablar va yo‘nalishlar hisoblangan antropologik materializm va antropologik idealizm, individualizm va kollektivizm g‘oyalari bir-biri bilan kesishadi.

Antik davr falsafiy antropologiyasi insonga munosabat borasida obyektlik munosabatda deya xulosa qilish mumkin. Buni biz quyidagi belgi va mezonlar orqali aniqlab olishimiz mumkin:

- Ratsionallik – bu belgiga ko‘ra antik davr faylasuflari inson borlig‘ini aql bilan tushuntirib berish mumkin deb hisoblashgan. Ular qaysidir ma’nodagi insonni aql bilan tushuntirib berishni o‘zlari talqinida amalga oshirganlar.

- Tizimlilik – bu belgiga ko‘ra inson qandayda bir katta tizimning bir bo‘lagi sifatida tushuntiriladi. Antik davr faylasuflari qarashlarida dastlab inson makrokosmosning bir bo‘lagi, keyinchalik esa jamiyat va tabiatning bir bo‘lagi deya izohlangan. Aynan mana shu katta tizimni o‘rganish orqali insonni ham o‘rganishga, inson borlig‘ini umumiy borliqdan ajratmagan holda tizimli tafakkur qilishgan.

- Substansionallik – bu belgiga ko‘ra insonning belgilovchi asos bor deb hisoblanadi va insonning borlig‘ini, mavjudligini belgilab turgan asos tashqarida deya izohlanadi.

Aynan mana shu belgilar insonni o‘rganish, tushuntirish mumkin bo‘lgan obyekt sifatida qarash tafakkuriga ega obyektlik munosabatning asosini tashkil qiladi. Bu belgilarning antik davrga, falsafiy antropologiyaga va umumiy falsafaning klassik davr bosqichiga xos ekanligini keyingi davrlar ta’limotlarini o‘rganish asnosida ham ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Choriyev. Inson falsafasi. T-2007.
2. A.K.Berdimuratova. “Filosofiya” oqiw qollanba. T-2022.
3. Аристотель . Сочинения. В четырех томах. Том 4. М ., 1983
4. Лосев А.Ф. История античной эстетики. Софисты. Сократ. Платон. М., 1969.
5. Г.Скирбекк. Н.Гилье. Фалсафа тарихи. Т., 2002.

